
MAHALLALARDA OBODONLASHTIRISH ISHLARI OLIB BORILMOQDA

Ayni kunlarda Toshloq tumanidagi barcha mahallalarda yo'l chetlari, binolar va hovlilar atrofi, yo'laklar, ziyoratgoh hamda qabristonlarda obodonlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

Bugun "So'filar" mahalla fuqarolar yig'inida aholi vakillari ishtirokida obodonlashtirish ishlari o'tkazildi. Obodonlashtirish doirasida ko'chalarda, piyodalar yo'lakchalarida tozalash, aholi xonadonlari devorlarini suvash, bo'yoqlash hamda qabristonlarda obodonlashtirish ishlari qizg'in olib borildi.

Bir so'z bilan aytganda tumanda har bir mahalla obodlik, ozodalik ko'rinishiga ega bo'lmoqda.

2023-07-22 16:01:37